

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEKNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

ZOINJINERIYA FAKULTETI

M.K.NARBAYEVA

-
**60811700-IPAKCHILIK VA TUTCHILIK TA'LIM YO'NALISHI 2 –
BOSQICH TALABALARI UCHUN “CHARVACHILIK ASOSLARI”
FANIDAN “CHO'CHQACHILIK. CHO'CHQACHILIKDA MAHSULOT
ISHLAB CHIQRISH ASOSLARI” MAVZUSIDAGI MA'RUZA DARS
ISHLANMASI**

Samarqand– 2024

Tayyorladi:

M.K.Narbayeva - “Xususiy zootexniya” dotsenti, q.x.f.n

Taqrizchilar:

**Shaptakov E.S - Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi
ilmiy tadqiqot instituti direktori,
q.x.f.d., professor**

**D.X.Xolmirzaev - Sam DVMCHBU. Yaylov chorvachiligi kafedrası
professori.**

Mavzu: CHO‘CHQACHILIK. CHO‘CHQACHILIKDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH ASOSLARI

1. Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qitish texnologiyasi

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: ___ ta
O‘quv mashg‘uloti shakli	Kirish, vizual ma’ruza
O‘quv mashg‘uloti rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Chuchqalarning biologik xususiyatlari 2. Cho‘chqalarning mahsuldorligi 3. Cho‘chqa zotlari. 4. Cho‘chqalarni urchitish texnikasi 5. Cho‘chqalarni burdoqilash
<p><i>O‘quv mashg‘ulot maqsadi:</i> Cho‘chqalarning biologik xususiyatlariga bo‘g‘ozlik davrining qisqaligi, serpushtiligi, tez yetiluvchanligi, semirish uchun oziqa sarflashi, har xil oziqalarni hazm qilishi, so‘yim chiqimining yuqoriligi kabi ko‘rsatkichiga ham alohida e’tibor berish.</p>	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - Chuchqalarning biologik xususiyatlari - Cho‘chqalarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish - Cho‘chqa zotlari haqida malumot - Cho‘chqalarni urchitish texnikasi - Cho‘chqalarni burdoqilash 	<p><i>O‘quv faoliyat natijalari:</i></p> <p>Talabalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> -Chuchqalarning biologik xususiyatlarini o‘rganadilar. -Cho‘chqalarning mahsuldorlik ko‘rsatkichlari haqida malumotga ega bo‘ladilar -Cho‘chqa zotlari haqida malumotga ega bo‘ladilar - Cho‘chqalarni urchitish texnikasini va cho‘chqalarni burdoqilashni o‘rganadilar.
<i>Ta’lim usullari</i>	Ma’ruza, pinbord, klastr, aqliy hujum
<i>Ta’limni tashkillashtirish shakli</i>	Jamoaviy
<i>Ta’lim vositalari</i>	Ma’ruzalar matni, proektor, tarqatma materiallar, grafik organayzerlar.
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki so‘rov: tezkor so‘rov.

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1 - bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10daq)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2 - bosqich. Asosiy (60 daq.)	2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi. - baliqchilikka doir qanday atamalarni bilasiz? - Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida cho'chqachilikning o'rni qanday deb o'ylaysiz? - cho'chqachilikning qanday tarmoqlari bor? 2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etishda davom etadi. 2.3. - O'zbekistonda cho'chqachilikning ahvoli. 2.4. cho'chqachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati haqida aytib o'tiladi	2.1. Eshitadi. Navbat bilan bir-birini takrorlamay atamalarni aytadi. O'ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi. 2.2. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi. Savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi. 2.3. Eslab qoladi, yozadi.
3 - bosqich. Yakuniy (10 daq.)	3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e'tiborini qaratadi. 3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar. Topshiriqni Yozadilar

Adabiyotlar

1. Maqsudov I., Jo'rayev J, Amirov Sh.K. "Chorvachilik asoslari" "Zarafshon" nashriyoti DK, Samarqand, 2013.

2. Maqsdov I., Yunusov X.B., Amirov Sh.K. "Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" "Navro'z" nashriyoti, Toshkent, 2020.

Mavzuni o'rganish uchun tayanch iboralar. Eksterer, o'lcham, indeks, grafik, interer, qon, teri, suyak, konstitusiya, dag'al, nozik, zich, bo'sh, zoologik klassifikasiya, kraniologik klassifikasiya, xo'jalik klassifikasiyasi, bonitirovka, zotlar, zot andozalari, sutdorlik, xususiy mahsuldorlik, avlodlar sifati, tirik vazn, kunlik semirish.

1 – masala.

Cho'chqachilik chorvachilikning muhim sohasi bo'lib, insonlar uchun muhim oziq-ovqat hisoblangan go'sht va sanoat uchun xom-ashyo manbai hisoblanadi.

Cho'chqa go'shti to'yimlilik bilan boshqa go'shtlardan ustun turadi, jahonda ishlab chiqarilayotgan go'sht salmog'ida cho'chqa go'shti 1 chi o'rinda turadi.

Cho'chqachilikda muvaffaqiyatga : ulardan har yili bitta o'rtacha urg'ochi Cho'chqadan kamida 17 bosh cho'chqa bolasi olish, bo'rdoqilarini kuniga 450-500 g semirtirishiga erishish, go'shtga topshiriladigan cho'chqalarning o'rtacha vaznini 110-120 kg gacha yetkazish va 1 kg semirish uchun 6,5-7,0 oziqa birligi sarflash orqali erishish mumkin.

Cho'chqalarning biologik xususiyatlariga bo'g'ozlik davrining qisqaligi, serpushtiligi, tez yetiluvchanligi, semirish uchun oziqa sarflashi, har xil oziqalarni hazm qilishi, so'yim chiqimining yuqoriligi kabilar kiradi.

Me'yorda o'stirilgan urg'ochi cho'chqalarni 9-10 oyligida vazni 120-130 kg bo'lganda urug'lantirib avlod olish mumkin yoki go'sht uchun yosh cho'chqalarni 5,5-6,0 oyligida 100 kg tirik vaznga yetkazib, go'sht uchun so'yish mumkin. Urg'ochi Cho'chqalarning bo'g'ozlik davri 114-116 kun bo'lib oddiy xo'jaliklarda bir yilda 2 marta tug'dirish imkonini bor, cho'chqa go'shti yetishtirish jadal usulda tashkil qilinganda 2,5 martagacha tug'dirish mumkin.

Cho'chqalar serpusht bir tuqqanda 13-15, ba'zi hollarda esa 30 tagacha bola tug'ish xususiyatiga ega, o'rtacha bir tuqqanda 10-12 cho'chqa bolasi olinadi.

Cho'chqalar jadal yog' semizligigacha bo'rdoqilanganda ularning so'yim chiqimi 75-85 % va go'sht uchun bo'rdoqilanganda 70-75 % bo'lib, qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida eng yuqori hisoblanadi.

Vazn ortishi uchun cho'chqalar eng kam oziqa birligi sarflaydi yoki 1 kg semirish uchun 4-5 oziqa birligi kifoya.


Cho'chqalar go'shti yaxshi saqlanish xususiyatiga ega bo'lib, turli usullarda uzoq vaqt saqlash bilan ularning sifati va texnologik xususiyatlarining o'zgarmasligi bilan ajralib turadi.

Cho'chqalar ishlab – chiqarish nuqtai nazaridan 3 guruhga bo'linadi:

Bekon cho'chqalari.

Go'sht yo'nalishidagi cho'chqalar.

Go'sht-yog' yo'nalishidagi cho'chqalar.



Bekon choʻchqalari maxsus texnologiyada bekon goʻshti yetishtirish uchun oʻstiriladi (Landras va eston bekon choʻchqalari). Bunday texnologiya boʻyicha respublikamizda Choʻchqa goʻshti yetishtirilmaydi.

Goʻsht yoʻnalishidagi choʻchqalari (Petren, Lakomb) maxsus texnologiya asosida oʻstirilib boʻrdoqiladi, bunday texnologiya ham respublikamizda qoʻllanilmaydi.

Respublikamizda asosan goʻsht-yogʻ yoʻnalishidagi choʻchqalar oʻstiriladi, ularni jadal oʻstirib, qisqa paytda boʻrdoqilab sergoʻsht nimtalar olish mumkin, boʻrdoqilash muddatlarini uzaytirish evaziga vaznli seryogʻ nimtalar olish imkoniyati toʻgʻiladi.

Bekon choʻchqalarining tanasi va oyoqlari uzun, tanasining oldingi qismiga nisbatan orqa tomoni yaxshi rivojlangan. Bu yoʻnalishidagi choʻchqalarning asosiy vakili boʻlib, landras zotli choʻchqalar hisoblanadi. Choʻchqalarning mahsuldorligini baholashda, ularni urchitish uchun tanlashda bu koʻrsatkichlar hisobga olinadi.

Goʻsht yoʻnalishidagi choʻchqalar tanasi uzun, torroq boʻladi, oyoqlari ancha uzun. Ular nimtasi tarkibida muskul toʻqimalarining koʻpligi bilan ajralib turadi. Bunday Choʻchqalarda muskul toʻqimalari 50-55 % cha yetadi.

Goʻsht- yogʻ yoʻnalishidagi choʻchqalar tanasi mutanosib rivojlangan boʻlib, tanasi uzun, keng, oyoqlari oʻrtacha uzunlikda boʻladi. Ular yoshligida sergoʻsht, vaqt oʻtishi bilan seryogʻ nimtalar beradi.

2-masala. Choʻchqalarning mahsuldorligi.

Choʻchqalar mahsuldorligining muhim belgilaridan ona choʻchqalardan olingan choʻchqa bolalarining yirikligi hisoblanadi. Choʻchqa bolalarining tugʻilgandagi vazni meʼyorda 1,1 – 1,3 kg ni tashkil qilishi kerak. Bu vazn choʻchqa bolalar tugʻilgandan keyin yemishga qoʻyilmasdan uya ogʻirligi, uyadagi choʻchqa bolalari soniga boʻlish bilan aniqlanadi.

Choʻchqa bolalarining tugʻilgandagi vazni bilan birga uyadagi choʻchqa bolalarining tengligi ham muhim seleksion belgi hisoblanadi. Uyadagi choʻchqa bolalari vazn jihatdan kam farq qilsa, ular durkun oʻsadi va yaxshi belgi hisoblanadi.

Serpushtlik – bir tuqqandagi cho‘chqa bolalarining soni bo‘lib, ko‘pincha xo‘jalik sharoitida bir yilda bir ona cho‘chqadan olingan cho‘chqa bolalarining soni bilan ham baholanadi.

Nasldor erkak cho‘chqalarning serpushtligi baholanganda ularning otalantirish xususiyati aniqlanadi, u otalangan urg‘ochi cho‘chqalar sonini qochirilgan cho‘chqalar soniga nisbati (%) bilan ifodalanadi.

Urg‘ochi cho‘chqalarning o‘rtacha pushtdorligi 10 – 11 cho‘chqa bolasini tashkil qiladi. Lekin ba‘zan urg‘ochi cho‘chqalar 20 –26 tagacha bola beradi.

Ona cho‘chqalarning tuxumdonida 16 –20 ta tuxum hujayrasi yetilib chiqadi, lekin ulardan 50% otalangungacha va homilaning dastlabki davrida nobud bo‘ladi. Shuning uchun imkoniy pushtdorlik bilan amaldagi pushtdorlik mos kelavermaydi. Buning sababi oziqlantirishning me‘yorda bo‘lmashligi, kasallik, erkak va urg‘ochi cho‘chqalardan noto‘g‘ri foydalanish natijasida tuxum va urug‘ hujayralarining sifatsizligi, urg‘ochi cho‘chqalarni o‘z vaqtida qochirmaslik hisoblanadi. Podani qayta tiklash urg‘ochi cho‘chqalarning qisir qolishi natijasida pasayib ketadi. Qisir cho‘chqa deb bolalaridan ajratilganda keyin qochmagan cho‘chqaga aytiladi.

Ona cho‘chqalarning sutdorligini ularning sutini o‘lchab ko‘rish bilan aniqlab bo‘lmaydi, chunki bunga cho‘chqa yelinining morfofunktsional xususiyatlari imkon bermaydi, yoki ularni sog‘ib bo‘lmaydi. Ba‘zi paytlarda cho‘chqa bolalarining 1 oyda qo‘shgan vaznini 1 kg qo‘shimcha vaznga sarflanadigan sutga, ya‘ni 3 kg ga ko‘paytirish bilan aniqlanadi. Biroq bu usul juda aniq emas, chunki cho‘chqa bolalari ushbu davrda ona sutidan tashqari boshqa oziqalarni ham iste‘mol qiladi.

Shuning uchun ona cho‘chqalarning sut mahsuldorligi uyadagi cho‘chqa bolalarining 21 kunlikdagi tirik vazni bilan belgilanadi, yoki shu davr ichida asosiy vazn ona suti evaziga ortishi faraz qilinadi va shartli sutdorlik deyiladi .

Ona cho‘chqalarning sut mahsuldorligi ularning zotiga individual xususiyatiga, irsiyatiga, yoshiga, oziqlantirish va saqlash sharoitlariga bog‘liq. Sersut ona cho‘chqalar laktasiyasi (2oy) davomida 300-400 l sut beradi.

O‘rtacha sutdorlik 250 – 300 kg bo‘lib, kuniga 3-4 l, sersutlari esa 8 – 10 l gacha sut ajratadi.

Yirik oq zotli cho‘chqalarda tuqqandan keyingi 1 inchi haftasida har bir cho‘chqa bolasiga 300 –350 g sut to‘g‘ri kelsa, to‘rtinchi haftada 500 – 550 g, sakkizinchi haftada esa yana 300 – 350 g sut to‘g‘ri keladi.

Cho‘chqalarning go‘sh t mahsuldorligi ularning zotiga, irsiyatiga, yoshiga, jinsiga, oziqlantirish va saqlash sharoitlariga, bo‘rdoqilash turiga, semizlik darajasi va boshqa omillarga bog‘liq.

Cho‘chqalarda 5 xil semizlik kategoriyalari mavjud. (Gost 1213 – 74).

1kategoriya – 8 oylikkacha yosh bekon cho‘chqalari, vazni 80 – 105 kg, teri osti yog‘ qatlamining qalinligi 1,5 –3,5sm;

2 kategoriya – yosh go‘sh t cho‘chqalari, vazni 60–130 kg, teri osti yog‘ qatlamining qalinligi 1,5 – 4,0 sm;

3 kategoriya – yog‘ semizligidagi cho‘chqalar, tirik vaznidan qat‘iy nazar, teri osti yog‘ qatlami 4,1 sm dan ortiq;

4 kategoriya – axtalangan erkak cho‘chqalar, vazni 130 kg dan yuqori, teri osti yog‘ qatlamining qalinligi 1,5 – 4,0 sm; puchak qilingan ona cho‘chqalar, tirik vaznidan qat’iy nazar teri osti yog‘ qatlamining qalinligi 1,5 – 4,0 sm;

5 kategoriya – sut davrida so‘yilgan cho‘chqa bolalari, vazni 4 – 8 kg.

3 - masala. Cho‘chqa zotlari.

O‘zbekistonda cho‘chqa zotlarining 3 tasi rejali hisoblanadi: **yirik oq; shimoliy kavkaz; landras**. Asosiy urchitiladigan zot bo‘lib **yirik oq cho‘chqa** hisoblanadi, shimoliy kavkaz va landras zotlari bo‘rdoqilash uchun 2 va 3 zotli duragaylar olishda foydalaniladi.

Yirik oq Cho‘chqa zoti – ushbu zot XIX asrda Angliyada **Iosif Tuley** tomonidan keltirib chiqarilgan.

U mahalliy angliya cho‘chqalarini dastlab roman keyin esa osiyo cho‘chqalari bilan chatishtirish natijasida keltirib chiqargan. Shu paytdayoq, u cho‘chqalar jussasi yirik va go‘sht belgilari yaxshi rivojlanganligi bilan ajralib turgan.

Hozir urchitilayotgan yirik oq cho‘chqalarning go‘sht, go‘sht – yog‘ yo‘nalishidagilarini kuzatish mumkin.




Yirik oq Cho‘chqa.

Ushbu zotga mansub cho‘chqalar oq tusda bo‘lib, tanasi mustahkam, jussasi yirik, voyaga yetgan erkak nasldor cho‘chqalari 300 – 350 kg, urg‘ochilari esa 200 – 250 kg tosh bosadi. Zot chEmpioni Samouchka laqabli nasldor erkak cho‘chqa 530 kg vaznga erishgan . Urg‘ochi cho‘chqalarining o‘rtacha pushtdordorligi 11,3 cho‘chqa bolasini tashkil etib, cho‘chqa bolalarining tug‘ilgandagi vazni 1,2 – 1,3 kg bo‘lib, ona cho‘chqalarning sutdorligi 70 –80 kg ni tashkil etadi, 100 kg vaznga 190 – 200 kunda erishadi, bo‘rdoqilash davrida o‘rtacha sutkalik semirish 640 – 680 g bo‘lib, 1kg semirish uchun 4,5-5,0 oziqa birligi sarflaydi. Ulardan yosh paytida sergo‘sht nimtalar, bo‘rdoqilashni cho‘zish bilan seryog‘ nimtalar olinadi.

Shimoliy kavkaz zoti – murakkab chatishtirish natijasida Kuban mahalliy cho‘chqalarini, yirik oq, berkshir va kalta quloq oq cho‘chqalari bilan chatishtirish natijasida keltirib chiqarilgan. Zot yetib 1955 yilda tasdiqlangan.

U ko‘p maqsadli cho‘chqalar guruhiga kirib, tusi qora-ola. Jadal o‘stirib bo‘rdoqlanganda 6 oyligida bekon nimtasi berishi mumkin.



Shimoliy kavkaz cho‘chqasi.

Ularning zotga xos tana xususiyatlari mavjud boshi keng, ko‘pincha kalta bo‘ladi, ko‘kragi keng va chuqur, orqa tomoni yaxshi rivojlangan, oyoqlari to‘g‘ri qo‘yilgan, mustahkam bo‘ladi, qillari qalin va mayin. Ushbu zotga mansub cho‘chqalar yosh paytida jadal o‘sadi, 100 kg vaznga 178 kunda erishadi yoki o‘rtacha 723 g semiradi va 1 kg vazn ortishiga 4,22 oziqa birligi sarflaydi (nazorat o‘stirib, bo‘rdoqilanganda). Erkak nasldor cho‘chqalari 300-350 kg, urg‘ochilari 220 – 230 kg tosh bosib, bir tuqqanda 10 – 11 cho‘chqa bolasi berib, sutdorligi 70 – 75 kg ga teng.

Landras zoti – Daniyada yirik oq zotli cho‘chqalarni maqsadli seleksiya qilish natijasida yaratilgan. U jahonning bekon yo‘nalishidagi mashhur, yagona cho‘chqa zoti hisoblanadi.

Ularning tanasi uzun, yassi, ko‘kragi torroq va sayoz, sonlari yo‘g‘on, terisi yupqa, tusi oq, qillari siyrak bo‘ladi.

Voyaga yetgan erkak nasldor cho‘chqalari 300 – 320 kg, urg‘ochilari 220 – 250 kg tirik vazn ko‘rsatadi, bir tuqqanda 10 – 12 cho‘chqa bolasi beradi, 100 kg tirik vaznga 189 kunda erishib, o‘rtacha sutkalik semirish 707 g va 1 kg semirish uchun 3,97 oziqa birligi sarflanadi (nazorat bo‘rdoqilashda).



Landras zotli Cho'chqa.

Rejali cho'chqa zotlari har bir fermer, shaxsiy yordamchi, dehqon xo'jaliklarining muayyan sharoitini hisobga olgan holda o'stirish va bo'rdoqilash maqsadlariga qarab tanlab olinadi.

4 – masala. Cho'chqalarni urchitish.

Cho'chqachilikda ko'p va sifatli go'sht ishlab chiqarish, samaradorlikka erishish har bir urg'ochi cho'chqani bo'g'oz bo'lishini ta'minlash, ko'proq cho'chqa bolasi olish, olingan cho'chqa bolalarini jadal o'stirish va bo'rdoqilash bilan belgilanadi.

Amerikalik olimlarning hisoblashicha sohani samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilarga erishish kerak: bir yilda har bir urg'ochi cho'chqadan 1,8 dan 2,0- 2,2 martagacha cho'chqa bolasi olish; bir bosh urg'ochi cho'chqa hisobiga 13 tadan 20 – 24 tagacha go'sht uchun cho'chqa bolasi o'stirish; cho'chqalar harajatini 20–40 % dan 7 – 13 % ga pasaytirish; har uyada 7,5 dan 9 –10 tagacha cho'chqa o'stirish; 18 dan 100 kg gacha vazni davomida har bir kg vazn ortishi uchun oziqa birligi sarfini 3,5 dan 2 – 2,75 ga kamaytirish va kasalliklar natijasida uladigan cho'chqalar harajatini 15 – 20 % ga kamaytirish.

Cho'chqachilikda muhim zootexnikaviy ko'rsatkichlardan poda tarkibi hisoblanadi, shu boisdan har bir fermer xo'jaliklari ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, oqilona poda tarkibini tuzish mumkin. Bu borada poda tarkibida urg'ochi cho'chqalar nisbatini ko'paytirmay turib, ulardan jadal foydalanish evaziga ko'proq cho'chqa bolalari olishni ta'minlash kerak.

Urg'ochi va erkak nasldor cho'chqalar serpushtligidan foydalanib ulardan ko'proq cho'chqa bolalari olish choralari ko'rish kerak. Bu borada urg'ochi cho'chqalarning yil davomida kuyukish xususiyatidan foydalanish asosida xo'jalik sharoitini inobatga olgan holda yilning xohlagan mavsumida cho'chqa bolalari olishni rejalashtirish mumkin.

Yosh cho'chqalarda jinsiy balog'at yoshi 5 – 6 oyligida kuzatiladi va shu davrdan boshlab erkak va urg'ochi cho'chqalarni ajratib saqlash lozim. Lekin bu davrdan boshlab erkak va urg'ochi cho'chqalardan urug'lantirishda foydalanish mumkin emas. Jismoniy yetilishi yoshi erkak cho'chqalarda 10 –11 oyligida vazni 130 – 150 kg, urg'ochi cho'chqalarda 9 – 10 oyligida vazni 110 – 120 kg bo'lganda erishiladi va ularni podani tiklashda foydalanish mumkin.

Dastlabki yili erkak yosh cho‘chqaga faqat 10 –15 bosh urg‘ochi cho‘chqa biriktiriladi.

Nasldor erkak cho‘chqalar rasioni urug‘lantirish mavsumida ancha kuchaytiriladi. Ular rasionida yem (arpa, suli, makkajo‘xori) 65 – 75 % , ko‘k oziqalar 8 – 12, shirali oziqalar 12 – 15 % , pichan 5% va sut chiqindilari 5 – 6 % tashkil qilishi kerak. Erkak nasldor cho‘chqaga beriladigan oziqalar hajmi katta bo‘lmasligi kerak va ular doimiy ravishda yayratib turilishi shart.

Urug‘lantirish mavsumiga 1 oy qolganda va mavsum davomida har oy erkak Cho‘chqalar urug‘i tekshirilib turiladi. Talabga javob bermaganlari dam olishga qo‘yiladi va qayta nazoratdan o‘tkaziladi.

Urg‘ochi cho‘chqalar bolalaridan ajratilganidan 4 – 6 kundan keyin kuyukadi. Bu davrda ularning o‘rta semizlikda bo‘lishi ta‘minlanadi. Chunki emizikli davrida ular 30 % gacha o‘z vaznini yo‘qotadi. Oriq urg‘ochi cho‘chqalar rasioni kuchaytirilib o‘rtacha semizlikka erishganidan keyin qochiriladi .

Yosh nasldor urg‘ochi cho‘chqalar naslchilik xo‘jaliklarida dastlab 10-11 oyligida vazni 130 – 150 kg bo‘lganida qochiriladi. Oddiy xo‘jaliklarda esa ular 9 – 10 oyligida vazni 110 – 120 kg bo‘lganda qochirilsa bo‘laveradi. Ushbu vaznga yerishmagan Cho‘chqalar urchish xususiyati past bo‘lib, ko‘pincha o‘lik bola tug‘adi.

Cho‘chqalarda jinsiy sikl har 16 – 21 kunda qaytariladi, ba‘zilarida u 14 – 30 kun ham bo‘lishi mumkin.

Kuyga kelgan urg‘ochi cho‘chqalar yayrash maydonchasida guruhlab saqlanganda bir – biriga sakraydi, bezovtalanadi, tashqi jinsiy a‘zolar qizarib shishadi va undan shilimshik suyuqlik ajralib turadi. Kuyukkan cho‘chqa boshqa cho‘chqa irg‘iganda qotib turadi, unga “qimirlamaslik refleksi“ deyilib, bunday cho‘chqalarni urug‘lantirish otalanish samarasini oshiradi. Oriq, yomon oziqlantirilgan urg‘ochi cho‘chqalar kuyukishda me‘yorda kechmaydi va u yuzaki bo‘lib, tashqi belgilar yaxshi kuzatilmaydi.

Kuyukish urg‘ochi cho‘chqalarda uch davrda kechadi:

Birinchi davr – hulq –atvorida keksin o‘zgarishlar ro‘y bermay, faqat tashqi jinsiy a‘zolar qizarib shishadi.

Ikkinchi davr – bezovta bo‘lib, erkak nasldor cho‘chqaga moyil bo‘ladi. Lekin hali erkak cho‘chqa irg‘iganda qotib turmaydi.

Uchinchi davr – “qimirlamaslik refleksi” ro‘y berib, urg‘ochi cho‘chqa erkak cho‘chqa irg‘iganda qimirlamay turadi, urug‘lantirish samara bilan tugaydi.

Voyaga yetgan urg‘ochi cho‘chqalarda jinsiy sikl ancha muqim bo‘lib, yoshlarida esa o‘zgaruvchan bo‘ladi. Jinsiy kuyukish cho‘chqalarda 50 – 60 soat, jinsiy moyillik esa 18 – 20 soat davom etadi, shu muddat urug‘lantirish uchun eng qulay hisoblanib, bu davrda ovulyasiya ro‘y berib tuxum hujayrasi ajralib chiqadi. Urg‘ochi cho‘chqa jinsiy a‘zosida urug‘ hujayrasi 3 soat, tuxum hujayrasi esa 6 – 10 soat yashaydi, shuning uchun moyillik davrida urg‘ochi cho‘chqalarni 2 marta urug‘lantirish maqsadga muvofiqdir. Urg‘ochi cho‘chqalarni urug‘lantirish 5 – 8 minut davom etadi. Urug‘lantirish tugagandan keyin nasldor erkak cho‘chqa ajratilib natijalar daftarga yozib qo‘yiladi va urg‘ochi cho‘chqa 2 – 3 kun alohida katakda saqlanadi, shundan keyin ular 25-30 boshdan guruhlanib, qisir cho‘chqalardan alohida saqlanadi. Qochirilgan urg‘ochi cho‘chqalar 15- 20 kun qattiq nazorat ostida bo‘ladi, shu vaqtda kuyukish alomatlari qaytarilmagan Cho‘chqalar bo‘g‘oz hisoblanadi .

Cho'chqalikda erkin, qo'lda urug'lantirish va sun'iy urug'lantirish usullari qo'llaniladi. Erkin urug'lantirish guruhda o'tkaziladi, 15 – 20 boshdan guruh tuziladi va unga bir bosh nasldor erkak cho'chqa qo'yiladi. U sutka davomida jinsiy moyil urg'ochi cho'chqalarni qochiradi. Ushbu usulda erkak cho'chqa imkoniyatlaridan rejali foydalanib bo'lmaydi, natijada bunday erkak cho'chqalar urug'i yetilib ulgurmasligi natajasida qator urg'ochi cho'chqalar qisir qolib ketishi mumkin. Bu usulning salbiy tomonlaridan biri, turli kasalliklarning tarqalishiga sharoit yaratiladi, iqtisodiy jihatdan samarasiz va zootexnika hisob-kitoblarini aniq yuritib bo'lmaydi.

Qo'lda urug'lantirish usuli ilg'orroq bo'lib, unda 1 erkak cho'chqaga 40-60 bosh urg'ochi cho'chqa to'g'ri kelib, zootexnika hisob – kitoblarini yuritishga to'liq imkoniyat yaratilib, har bir urg'ochi cho'chqa holati va jinsiy a'zosi veterinariya ko'rigidan o'tkaziladi .

Bu usulda kuyukkan, jinsiy moyil urg'ochi cho'chqa stanokka kiritilib, tekshirilib, erkak nasldor cho'chqa qo'yiladi, qovishish ro'y bergandan keyin, natija yozilib, erkak cho'chqa o'z katagiga urg'ochi cho'chqa yakka katakka qamaladi.

Sun'iy urug'lantirish eng maqbul usul bo'lib, asl erkak nasldor cho'chqalardan samarali foydalanish, ularning bir boshning urug'i bilan yuzlab urg'ochi cho'chqalarni urug'lantirish evaziga qisqa davr ichida seleksiya samaradorligiga erishish mumkin.

Yerkak nasldor cho'chqa urug'i an'anaviy usulda olinib, sifati nazorat qilinib, maxsus shpris yordamida urug' qin orqali bachadon bo'ynida o'tkazilib to'kiladi.

Bu usulda urg'ochi cho'chqa jinsiy a'zolarini tekshirish, tozalash, ishlov berish va hisob-kitobni yo'lga quyish uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi.

Bo'g'oz cho'chqalarni saqlashga alohida e'tibor beriladi. Ular 40-50 boshdan guruhlab, yayratib saqlanadi. Ular rasionining 65-70 % yem va 30-35 % ko'k va dag'al oziqlardan tashkil topadi. Ularga yetarli miqdorda vitamin va mineral moddalar yetkazib berilishi kerak. Ushbu maqsadda bo'g'oz cho'chqalarga 20 % bo'r, 40 % osh tuzi va 40 % suyak unidan iborat mineral aralashlar yedirish ijobiy natijalar beradi. Iloji bor xo'jaliklarda ularni ochiq maydonchalar va yaylovlarda asrash yaxshi natijalar beradi.

Bo'g'oz cho'chqalar tug'ishiga 10 kun qolganda ona cho'chqalar cho'chqaxonasiga o'tkazilib tuqqanga qadar 5-6 tadan guruhlab saqlanadi, tug'ishga 3-4 kun qolganda rasion 30-40 % ga qisqartiriladi.

Tug'ish paytida cho'chqalar yakka kataklarga o'tkaziladi. Ushbu kataklar obdan tozalanib, dezinfeksiya qilinib, 5-6 kun shamollatilib va yetarli miqdorda to'shama solingan bo'lishi shart. cho'chqaxonada doimiy navbatchilik tashkil qilinadi.

Tug'ish 1,5 soatdan 6 soatgacha davom yetadi, har 10-20 minutda 1 ta cho'chqa bolalari tekshiriladi, pardada tug'ilgan bo'lsa pardalar yirtib tashlanadi, ba'zilariga nafas olish yoki qon aylanishni tiklashda yordam beriladi. Shundan keyin urg'ochi cho'chqa yelini yuvilib, artilib cho'chqa bolalari uyasi tortilib keyin emishga qo'yiladi. Barcha cho'chqa bolalarining kindigi tanasidan 4-5 sm qoldirib ip bilan bog'lab, qolganini dezinfeksiya qilib, tugundan keyin o'tkir qaychi bilan kesiladi. Mikroblarga qarshi kurash uchun kindik qoldig'i va uning atrofi yod eritmasi bilan ishlanadi. Dastlabki tug'ilgan cho'chqa bolalari qalin to'shama solingan yashiklarga solinib ustidan kanop qoplik bilan yopib qo'yiladi.

Cho'chqa bolalarini 2-3 soat och qoldirish ular salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun artib, tozalanib, quritilgan zahotiyok emishga quyish kerak. Cho'chqa bolalari 2-3 kun ichida tamg'alanib, buxgalteriyaga daromad qilinadi.

Tuqqan urg'ochi cho'chqa ma'lumotlari urug'lantirish va tug'ish daftariga yoziladi, cho'chqa bolalari esa yirikligi va tengligi bo'yicha baholanadi.

Ko'pincha yirik nuqsonlar bilan cho'chqa bolalari tug'ilishi urg'ochi cho'chqalarning bo'g'ozlik davrida noto'g'ri boqish va asrash asosida ro'y beradi.

Aksariyat hayotchanligi past, o'lik cho'chqa bolalarining tug'ilishiga pala-partish, qarindosh urchitish ham sabab bo'ladi, shuning uchun oddiy (tovar) xo'jaliklarida qarindosh urchitishga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ba'zan chalajon tug'ilgan cho'chqa bolalari boshidan tashqari tana qismini paqirdagi 45-50⁰ S haroratdagi issiq suvga botirilib 2-3 minut saqlab turiladi, unda qon aylanish va nafas tizimi faoliyati tiklanib u jonlanadi.

Emizikli cho'chqalarni yetarli oziqlantirish ularning sut mahsuldorligiga ijobiy ta'sir yetadi. Urg'ochi cho'chqalar 5-6 kun og'iz suti va ikki oy davomida sut beradi. Emizikli cho'chqalarga 1 kg suti uchun 0,85 oziqa birligi berish talab qilinadi. Agar ona cho'chqa sutkasiga 4-6 litr sut bersa 3,4-5,1 oziqa birligi iste'mol qilishi shart. Bundan tashqari o'z tanasini saqlab turish uchun har 100 kg tirik vazni uchun 1,5 –2,0 oziqa birligi beriladi. Cho'chqa bolasining har boshi uchun 0,5 oziqa birligi berilib, har bir oziqa birligida 115-120 g hazmlanuvchi protein bo'lishi talab yetiladi. Bundan tashqari bir oziqa birligi tarkibida 8 g osh tuzi, 7 g kalsiy, 5 g fosfor, 6-8 ml karotin bo'lishi kerak.

Emizikli cho'chqalar bir kecha-kunduzda 3 marta oziqlantiriladi. Ular rasioni yem va sut haydovchi oziqalardan tuziladi. Iloji boricha Emizikli cho'chqalarni ochiq maydonlarda saqlash va yaylovlarda boqish ijobiy natijalar beradi.

Cho'chqalar bolalari onalaridan oddiy xo'jaliklarda 60 kun, o'rtacha jadallikdagi xo'jaliklarda 45 kun va sanoat asosida cho'chqa go'shti ishlab chiqaradigan korxonalarda 26 kunda ajratiladi. Sut davrida cho'chqa bolalari kuniga 20-30 marta onasini emadi, yoki har 40 minutda 1 marta. Har Yemganda bir cho'chqa bolasi o'rtacha 15-20 ml, kuchlilari esa 70 ml gacha sut iste'mol qiladi.

Cho'chqa bolalari tug'ilgandan keyin 5-6 kun og'iz suti iste'mol qiladi, u yangi tug'ilgan cho'chqa bolasining to'yimli moddalar va energiyaga bo'lgan talablarni qondiribgina qolmasdan, uning tanasida tashqi muhit ta'siriga chidamliligini ta'minlaydigan yagona oziqa manbai hisoblanadi. Og'iz suti o'zining tarkibida oddiy sutga nisbatan 2 barobar ko'p quruq moddalar va bir necha bor ko'p oqsillarni mujassam etgan.

Cho'chqa suti tarkibida yosh cho'chqa bolalarini o'sish va rivojlanishi uchun kerak bo'lgan barcha to'yimli moddalar bo'lib, ular yosh cho'chqa oshqozon-ichak tizimini tomonidan oson hazm qilinadi.

Cho'chqa bolalarini sut davrida o'stirish o'ta ma'suliyatli tadbir hisoblanadi. Bu qiyinchiliklar dastlab ularning oshqozon-ichak tizimi yaxshi rivojlanmagan, hajmi kichik bo'ladi, yoshi ulg'ayishi bilan hajmi ortib boradi.

Cho'chqa bolalarida dastlabki kunlari oshqozon shirasi oshqozonga sut tushishi bilan qitiqlanishi natijasida ajralib chiqadi. Shuning uchun dastlabki kunlari kam-kam, tez-tez emizish va oziqa berib turish ular oshqozonini doimiy ishlashi va shira ajralib chiqishini ta'minlaydi.

Cho'chqa bolalarini onasi bilan birga saqlash oshqozonni yaxshi ishlashiga olib keladi. 3-4 haftagacha asosiy oziqa ona suti hisoblanadi, shu davrda oshqozon shirasi tarkibida xlorid kislotasining bo'lmazligi boshqa oziqalarni hazm qilish imkonini bermaydi. 3-4 haftadan keyin cho'chqa bolalarining to'yimli moddalarga talabini sut bilan qondirish imkoni bo'lmaydi, shuning uchun ularga boshqa oziqalar berila boshlaydi. Cho'chqa bolalariga ertaroq qo'shimcha oziqalar berish birinchidan ularning to'yimli moddalarga bo'lgan talabini to'laroq qondirsa, ikkinchidan oshqozon hajmini kattalashishi va faoliyatining jadallashishiga sabab bo'ladi.

Cho'chqa bolalari sut davrining boshida unchalik jadal o'smasa ham, 5-6 nichi haftalarda juda durkun o'sadi, 2 oyligida sutdan chiqish paytida 14-18 kg tirik vaznga ega bo'lib kuniga o'rtacha 250-260 g vazn qo'shib boradi.

Cho'chqa bolalarining durkun o'sishi uchun 10-12 kunligidan boshlab qo'shimcha qaymog'i olinmagan sigir suti, keyinchalik qaymog'i olingan sut yoki qatiq berish o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. 10 kunlikdan keyin cho'chqa bolalari uchun qilingan oxurlarga ko'g'irilgan bug'doy, arpa va boshqa donlarni solib qo'yilishi ularni kuchli ozuqalar iste'mol qilishga o'rgatadi. Bundan tashqari ular oxuriga ko'g'irilgan don bilan suyak uni, qizil tuproq, ko'mir qo'shib yedirish ham yaxshi natijalar beradi. Ular tez kun ichida yemga o'rganib, uni xom yeya boshlaydi. Shu davrdan boshlab ularga hajmli oziqalar ham berila boshlaydi. Cho'chqa bolalari sut yemish davrida kamqonlik kasalligi ko'p uchraydi. Buning uchun temir va mis kuporosining yeritmasi tayyorlanib (2,5 g Fe SO₄ 11 suvga) har kuni 2 marta urg'ochi cho'chqa yeliniga surtib qo'yiladi, uni yemish evaziga cho'chqa bolalari iste'mol qiladi. Bu jarayon 2-3 hafta davom etadi.

Keyingi yillarda cho'chqa bolalari tug'ilganlaridan 3-5 kun keyin ularga tEmirli dorilar yuboriladi. Ya'ni ferroglyukin-2ml, ferrodeks- 1,5 ml, urzoferran-5 ml, bu tadbir 3-4 haftaligida qaytariladi. Cho'chqa bolalari kasallanmasligi uchun 10 kunligida 5 mg, 20 kunligida 10 mg, 21 kunligidan 40 kunligigacha 20 mg antibiotik beriladi. Sut davrida cho'chqa bolalarining durkun o'sishi uchun suli sharbati aralashgan sut, iloji bor xo'jaliklar sun'iy sut bilan oziqlantirish ularning yaxshi o'sishini ta'minlaydi. Cho'chqa bolalarini sut davrida ayvonli yayrash maydonchalari va qishda ochiq havoga chiqarish yaxshi natijalar beradi. Cho'chqa bolalariga yozda yashil oziqalar va qishda sun'iy o'stirilgan don ko'klarini berish ularni avitaminoz kasalligidan holi etadi.

Cho'chqa bolalarini onasidan ajratish juda mas'uliyatli ish hisoblanadi, uni noto'g'ri tashkil qilish cho'chqa bolalarining kasallanishi va ma'lum davr o'sish jadalligini pasayishiga sabab bo'ladi.

Shu boisdan ushbu jarayon urg'ochi cho'chqa va uning bolalari uchun iloji boricha og'riqsiz bo'lishi kerak. Buning uchun dastlab urg'ochi cho'chqa rasionini to'yimligini 30 – 40 % ga asosan sut haydovchi oziqalar evaziga kamaytiriladi va ajratish boshlanish kuni cho'chqa bolalari 5 marta, ikkinchi kuni 4 marta, 3 kuni 3 marta, 4 kuni 2 marta, 5 kuni 1 marta emizildi va undan keyin urg'ochi cho'chqa stanokdan chiqarilib qochirilishi lozim urg'ochi cho'chqalar guruhiga o'tkaziladi.

Urg'ochi cho'chqalar yelini ma'lum davrgacha kuzatib boriladi, sut hosil bo'lishi davom yetsa vaqti-vaqti bilan bolalarini qo'yib Yemdirib turish kerak, aks holda u og'rib, yallig'lanishga sabab bo'lishi mumkin.

Onasidan ajratilgan cho‘chqa bolalari 5 – 6 kun o‘z kataklarida saqlanadi, shundan keyin ularga dalolatnoma tuzilib, o‘ng quloqlariga doimiy tartib raqami qo‘yiladi. Unda erkaklariga toq va urg‘ochilariga juft raqam beriladi.

Urg‘ochi cho‘chqa tuqqandan keyin dastlabki 4 – 5 kun cho‘chqaboqar uchun ma’suliyatli kunlar bo‘lib, unda yelin so‘rg‘ichlarini cho‘chqa bolalari holati bo‘yicha bo‘lib uni nazorat qilib turish kerak, ya’ni sersut Yemchaklar nimjon yoki mayda cho‘chqa bolalariga, kamsutroq so‘rg‘ichlar esa yirikroq cho‘chqa bolalariga ajratiladi, natijada onasidan ajratish davriga kelib ular durkun o‘sib uyadagi Cho‘chqa bolalari bir xil bo‘lib qoladi. Cho‘chqa bolalarining onasida ajratish davriga tirik vazni 16-18 kg bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

2 oyligida onasidan ajratilgan cho‘chqa bolalari 25-50 boshdan qilib guruhlanadi, ular qishda issiq xonalarda, yozda ochiq ayvonlar tagida saqlanadi. Ular dastlabki kunlari 5 – 6 marta, keyinchalik 3 – 4 marta oziqlantiriladi. Ularga albatta sut oziqalari bilan yem, shirali va dag‘al oziqalar beriladi. Sutdan chiqqan cho‘chqa bolalari kasallanmasliklari uchun ularga har kuni 2 marta 1 kg yemga 5 g biomisin, yoki 10 g penisillin qo‘shib 5 – 6 kun yedirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunga qaramasdan ular 10-15 kun onasini qumsab bezovtalanadi, shuning uchun ularga diqqat-ye’tibor zarur. Shu boisdan ularga 1 – 3 l qaymog‘i olingan sut berib turish tavsiya etiladi. Agar ular birdan o‘simlik oziqalari rasioniga o‘tkazilsa birdan ko‘nikmay, rasiondagi oziqalarni to‘liq hazm qila olmasligi natijasida tirik vazni sekin ortadi.

Albatta onasidan ajratilgan cho‘chqa bolalari rasionida yetarli miqdorda oqsil, mineral moddalar vitaminlarga boy oziqalar bo‘lishi talab etiladi. Ushbu maqsadda ular rasioniga ko‘proq qaymog‘i olingan sut, ayron va zardob qo‘shish yaxshi natijalar beradi.

1-jadval

Onasidan ajratilgan Cho‘chqa bolalarining tirik vazni, kg
(A.P.Redkin bo‘yicha)

Cho‘chqa bolalarining yoshi	Sof zotli nasldor Cho‘chqa bolalari	Go‘sht uchun o‘stiriladigan duragay Cho‘chqa bolalari
1 oylik	6-9	5.5-7.0
2 oylik	16-20	14-18
3 oylik	28-35	25-30
4 oylik	40-50	38-45

Podani to‘ldirishga mo‘ljallangan yosh Cho‘chqalar uchun 4 -o‘n kunlikda 2 l dan, 5 chi o‘n kunlikda 1,5 l va 6 o‘n kunlikda 0,5 l qaymog‘i olingan sut, ayron va zardob berish tavsiya etilsa, bo‘rdoqilashga ajratilgan guruhlarda esa 1-o‘n kunlikda 0,8 litr, 2 - o‘n kunlikda 0,6, 3 - o‘n kunlikda 0,4, 4 -o‘n kunlikda – 0,3, va 5-o‘n kunlikda 0,2 l qaymog‘i olingan sut beriladi.

Onasidan ajratilgan cho‘chqa bolalariga yetarli miqdorda qishda dag‘al va shirali, yozda ko‘kat oziqalar bo‘lishi ularning oshqozon-ichak tizimining rivojlanishi va bo‘rdoqilash davri uchun tayyor bo‘lishida alohida o‘rin tutadi.

Ushbu guruh cho'chqalarga yem yormalarini achitib berish yaxshi natijalar beradi, lekin bu jarayonga cho'chqa bolalari asta-sekinlik bilan o'rgatilishi kerak, aks holda ularning ichi o'tib ketishi mumkin.

Onasidan ajratilgan cho'chqa bolalarini me'yor bo'yicha 4 oylikkacha 4 mahal, keyin esa 3 mahal oziqlantiriladi.

2-4 oylik cho'chqalar katagida har doim quruq va toza yem, hamda toza suv bo'lishi shart. Bu cho'chqalarni yayratish va tanasini toza saqlash talab etiladi.

4 oylik cho'chqa bolalari jinsi bo'yicha guruhlanadi. 4 oylik Cho'chqalar baholanib asllari podani to'ldirish uchun, qolganlari esa bo'rdoqilash guruhlariga o'tkaziladi.

Podani to'ldirishga mashhur erkak va mahsuldor yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega urg'ochi cho'chqalar bolalari qoldirilib ularga me'yordagi oziqlantirish va saqlash sharoitlari yaratib beriladi.

Podani to'ldirish uchun 4 oylik urg'ochi cho'chqalar talabga nisbatan 2-3 barobar ko'p qoldirilib kelib chiqishi, ekstereri va konstitutsiyasi, o'sish va rivojlanishi bo'yicha baholanadi.

4 oylikdan keyin urg'ochi nasldor cho'chqalar 40-50 boshdan guruhlab saqlanib olti oyligida yana baholanadi, unda tirik vazni, tez yetiluvchanligi eksterer va konstitutsiyasi va sog'ligi inobatga olinadi.

10-11 oylik podani to'ldirish uchun qoldirilgan urg'ochi cho'chqalar 4 marta baholanadi, ularning vazni shu vaqtda 130-140 kg bo'lishi kerak. Podani to'ldirish uchun qoldirilgan erkak cho'chqalar shu davrda 150-160 kg bo'lishi talab etiladi.

Birinchi marta qochirilayotgan urg'ochi cho'chqalar avlodlarining sifati bo'yicha nazorat qilingan kamida elita klass nasldor erkak cho'chqalar bilan, birinchi marta urug'lantirishda foydalanayotgan erkak cho'chqalar esa tekshirilgan urg'ochi cho'chqalar bilan juftlanadi. Urg'ochi cho'chqalar birinchi marta tuqqanidan keyin avlodining sifati bo'yicha oxirgi marta nazorat qilinib eng yaxshilari olib qolinib, qolganlari bo'rdoqilash guruhiga o'tkaziladi. Podani to'ldirish uchun bahor paytida tug'ilgan cho'chqa bolalarini qoldirish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki ular erta bahordan kech kuzgacha ochiq havo va ko'kat oziqalarni iste'mol qilishi natijasida sog'lom va baquvvat o'sadi, bunday cho'chqalarda xo'jalikda uzoq vaqt foydalanish mumkin.

Podani to'ldirish uchun mo'ljallangan nasldor yosh cho'chqalarni semirib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun faqat me'yorlar asosida oziqlanishini tashkil qilish kerak.

Cho'chqalarni bo'rdoqilash.

Bo'rdoqilash maxsus binolarda yoki ayvonli maydonchalarda o'tkaziladi. Cho'chqalar guruhlab 25-50 boshdan kataklarda saqlanadi. Bo'rdoqilash natijalariga cho'chqaning zoti, yoshi, jinsi, vazni, oziqlantirish va saqlash sharoitlari, saqlash zichligi va bo'rdoqilash davomiyligi ta'sir qiladi. Cho'chqalar go'sht, bekon va yog' semizligigacha bo'rdoqilanadi.

Go'sht uchun cho'chqa bolalarini bo'rdoqilash 4 oyligida tirik vazni 35-40 kg bo'lganda boshlanib, 110-120 kg vazngacha davom ettiriladi.

Bo'rdoqilash risoladagidek tashkil qilinsa ushbu vaznga cho'chaqalar 6,5-7,5 oyligida erishadi. O'rtacha kunlik semirish 600 g va undan yuqori bo'lishi ta'minlanadi

va 1 kg vazn ortishi uchun 4-5 oziqa birligi sarflanadi. Go'sht uchun bo'rdoqilash yakunida bo'rdoqi cho'chqalar 6-7 ko'krak umurtqa o'simtasi ustidagi yog' qatlaminig qalinligi 1,5-4 sm atrofida bo'lishi, nimtaning 52-58% go'sht va 33-40% yog' tashkil etishi kerak. Xo'jalikning oziqa zahiralarga qarab go'sht bo'rdoqilashi o'rtacha jadallika (kuniga 550 g gacha semirtirish) va jadal (kuniga 550 g dan ortiq) bo'lishi mumkin.

Rasion tarkibida oziqalar nisbatiga ko'ra burdoqilash yemli, yem va lavlagili, hamda yem va oziqa chiqindilari asosida bo'lishi mumkin. Eng ko'p tarqalgan yemli xili hisoblanadi. Bunda rasion asosan don, proteinli o'simlik va hayvonot oziqalari, vitaminli, antibiotik, mineral va mikroelementli qo'shimchalardan tashkil topadi.

Bunday oziqalar quruq aralashma sifatida sanoat yoki xo'jalik sharoitida tayyorlagan bo'lishi mumkin. Rasionda yemning ko'p bo'lishi cho'chqalarning to'yimli moddalarga bo'lgan talabini kam hajmdagi oziqa bilan qondirish imkonini beradi. Bundan tashqari yem oziqalarini yedirish qulay.

Lavlagi bilan bo'rdoqilashda rasion to'yimligining 30-35% ini qand lavlagisi tashkil qilib u ham maydalangan holda cho'chqalarda yediriladi.

Yem-lavlagi rasionlarda bo'rdoqilanganda protein, mineral va vitaminlar bilan tenglashtirish talab etiladi, chunki qand lavlagisi yuqoridagi to'yimli moddalarga kambag'al bo'ladi. Yirik shaharlar atroflarida go'sht uchun cho'chqalar oziq-ovqat chiqindilaridan foydalanib bo'rdoqiladi. Ushbu chiqindilar oziq-ovqatlar ishlab chiqaradigan va umumiy ovqatlanish korxonalaridan olinadi. Bunday chiqindilar avtoklav qozonlarida yem bilan birga pishirilib cho'chqalarga yediriladi. Oziq-ovqat chiqindilari rasion to'yimligini 30 % gacha bo'lishi tavsiya etiladi.

Bekon- yosh cho'chqa go'shti hisoblanadi. Bunday nimta o'z tarkibida asosan go'sht va oz miqdordagi yog' bilan ta'riflanib, nozikligi, mayinligi va ajoyib ta'mi bilan ajralib turadi. Ulardan noyob cho'chqa go'shti pishiriqlari tayyorlanadi (asosan dudlamalar). Bo'rdoqilash muddatlari go'sht bo'rdoqilash muddatlariga teng kelib qoladi. Bekon burdoqilash uchun oq tusdagi sog'lom 2,0-2,5 oylik vazni 20-25 kgli cho'chqa bolalari tanlab olinadi.

Bekon bo'rdoqilash uchun talablar go'sht uchun bo'rdoqilashga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Bo'rdoqilash 6-7 oylikda yakunlanib cho'chqalar vazni 90-105 kg ga yetadi. Bo'rdoqilashdan keyin cho'chqalar nimtasi uzun, tashqi qismida burmalar bo'lmasligi kerak, teri osti yog' qatlami yupqa bo'lib (6-7 ko'krak umutqalari o'simtalari ustidagi yog' qatlami 1,5-3,5 sm), yog'ning eng qalin va yupqa joylaridagi farqi 0,5 sm dan oshmasdan teng qalinlikda bo'lishi kerak. Bekon bo'rdoqilash uchun yosh go'sht va bekon yo'nalishidagi cho'chqalar bo'rdoqilani ulardan kamyog' sifatli cho'chqa go'shti ishlab chiqariladi.

Sutkalik semirish bo'rdoqilashning birinchi davrida 400-500 g, 2-davrda esa eng kamida 600-700g bo'lishi talab etiladi. 1g semirish uchun 4,0-4,5 oziqa birligi sarflanadi. Oziqlantirish me'yori xuddi yosh cho'chqalar go'sht uchun o'stirilgandagidek bo'ladi. Qish paytida rasionning 80-85% yem, 10% hayvonot oziqalari va 5-10% shirali va o't talqoni tashkil qiladi. Yoz paytida shirali oziqalar va o't talqoni o'rniga ko'kat oziqalar kiritiladi. Makkajo'xori va suli doni, kepak, baliq qoldiqlari, kunjara va shrot bekon sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib uning yog'i yumshoq va eruvchan bo'lib qoladi. Bunday oziqalardan bo'rdoqilashning birinchi davrida

foydalanib boʻrdoqilash oxiriga 1,5-2 oy qolganda toʻxtatiladi. Choʻchqalarni boʻrdoqilash noʻxat, arpa, tariq, kartoshka va dukkakli oʻtlardan tayyorlangan talqonlardan foydalanib oʻtkazilsa aʻlo sifatli bekon nimtalar olinadi.

Bekon boʻrdoqilash uchun terilari jarohatlangan choʻchqa bolalari tanlab olinmaydi. Boʻrdoqilash tugab, choʻchqalarni soʻyishiga olib borishida har 1 katak choʻchqalarni alohida ulovda olib borish kerak, agar boshqa katak choʻchqalari aralashtirib yuborilsa choʻchqalar bezovtalanib, urishib bir-birlariga jarohat yetkazishi natijasida bekon nimta sifati pasayadi, baʼzan esa bekon nimtalari puchak (brak) qilinib goʻsht nimtasiga oʻtkazib yuboriladi.

Choʻchqa goʻshti yetishtirishni koʻpaytirishdagi asosiy zahiralardan biri puchak qilingan voyaga yetgan choʻchqalarni boʻrdoqilash hisoblanadi. (100kg dan ortik yosh choʻchqalar, urgʻochi va erkak choʻchqalar). Puchak qilingan choʻchqalar jinsi va vazni boʻyicha guruhlanadi. Boʻrdoqilash 2-3 oy jadal tashkil qilinadi. Shu davr ichida sutkalik semirish 800-1000 g ni tashkil etib, teri osti yogʻ qatlamining qalinligi 7 sm ga yetadi. Bunday choʻchqalar vazni asosan yogʻ hisobiga ortishini hisobga olib rasion tarkibida protein kamaytirilib (70-80 g protein 1 oziqa birligida), uglevodli oziqalar nisbati koʻpaytiriladi.

Boʻrdoqilashning birinchi oyida rasion tarkibiga toʻyimlilik boʻyicha 40-50% hajmli oziqalar kiritiladi (silos, kartoshka, lavlagi, oziq-ovqat va don chiqindilari). Boʻrdoqilash pirovardida bunday oziqalar nisbati kamaytirilib yem oziqalari nisbati 70-80% ga, baʼzan esa 100% ga yetkaziladi.

Nazorat savollari

1. Choʻchqachilikning ahamiyati nimada?
2. Choʻchqalarning boiologik xususiyatlari.
3. Choʻchqalarning mahsuldorligi.
4. Choʻchqalarni boʻrdoqilash.
5. Choʻchqalarni urugʻlantirish.
6. Bugʻoz choʻchqalarni asrash.
7. Choʻchqalarni tugʻdirish.
8. Choʻchqalar sut mahsuldorligini qanday aniqlaymiz?

TEST

1. Urgʻochi Choʻchqalarni qachon birinchi marta qochirish mumkin?

- A. 9-10 oyligida
- B. 10-12 oyligida
- D. 12-16 oyligida
- E. 14-18 oyligida

2. Choʻchqalarning boʻgʻozlik davri necha kunga teng?

- A. 117 kunga
- B. 100 kunga
- D. 112 kunga
- E. 125 kunga

3. Choʻchqalarni necha kg tirik vaznga ega boʻlganida qochirish mumkin?

- A. 90-100 kg

- B.60-70 kg
- D.50-60 kg
- E. 65-70 KG

4. Erkak Cho‘chqalar necha kunda 100 kg tirikk vaznga ega bo‘lishi mumkin?

- A.180-190 kunlikda
- B.210-220 kunlikda
- D.230-240 kunlikda
- E.150-160 kunlikda

5. Cho‘chqa bolalarining tug‘ilgandagi tirik vazni qancha bo‘lsa yaxshi?

- A.1-1,2 kg
- B.800-900 gr
- D.700-800 gr
- E.600-700 gr

6. O‘zbekistonda qanday Cho‘chqa zotlari urchitiladi?

- A.Yirik oq Cho‘chqa, shimoliy kavkaz, landras.
- B.Yirik oq Cho‘chqa, Mirgorod, Urjum.
- D.SHimoliy kavkaz, Mirgorod, Urjum.
- E.Breytov, SHimoliy kavkaz, landras

7. Cho‘chqa bolasining tug‘ilgandagi og‘irligi onasining og‘irligiga nisbatan o‘rtacha necha foizni tashkil qiladi.

- A.O‘rtacha 1% ni tashkil qiladi
- B. O‘rtacha 3% ni tashkil qiladi.
- D. O‘rtacha 5-6 %ni tashkil qiladi.
- E. O‘rtacha 3-4 %ni tashkil qiladi.

